Aripov.Sh.O.
Farg‘ona davlat universiteti
p.f.b.f.d (PhD) Pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi

O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ETNOPEDAGOGIK RESURSLARNI O‘RNI

Yosh avlodning har tomonlama kamol topishi jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy omil bo‘lishi bilan bir qatorda uning shaxs sifatida ijtimoiy faollashuvida ham etakchi o‘rin tutadi. O‘quvchi shaxsining ijtimoiy faolligi quyidagi ikki jihatga ko‘ra muhim ahamiyatga ega: birinchidan, shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun zamin yaratadi, ikkinchidan esa, uning bilimi, kuch-quvvati, imkoniyati hamda iqtidori jamiyat rivoji yo‘lida mehnat qilishga yo‘naltiriladi. Manbalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, demokratik jamiyatda o‘quvchilar ijtimoiy faolligi o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi, balki muntazam tarzda maqsadli ravishda olib borilgan pedagogik faoliyat natijasida shakllantiriladi. O‘quvchiyoshlarga nazariy-amaliy bilimlarni berish, ularda ijtimoiy faollik ko‘nikma va malakalarini hosil qilish pedagogika nazariyasi va amaliyoti uchun ham o‘ziga xos ahamiyatga ega ekanligi bilan dolzarblik kasb etadi.

Inson ehtiyoji uni tarbiyalash jarayonida, ya’ni madaniy jarayon bilan yaqinlasha borib shakllanadi. Chunki insonning o‘z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shaklini egallashning faol, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan jarayoni sifatida alohida ajralib turadi. Shuning uchun ham bu muammoning turli jihatlari pedagogika fanida tadqiq etib kelinadi. Inson o‘zining ijtimoiy majburiyatlari, jamiyat oldidagi burchi, o‘z mas’uliyatini tabiiy bir hol, o‘z erkinligi va ijtimoiy faolligining uzviy bir qismi sifatida qabul qilgandagina ma’naviy barkamol shaxsga aylanadi. Insonning faolligi shaxs sifatida shakllanishining asosiy omili hisoblanadi. Mazkur jarayon davomida faqat tabiiy va ijtimoiy dunyoga moslashish yuz berib qolmasdan balki inson uni o‘z xohishiga mos ravishda o‘zgartiradi. Jamiyatning o‘zi, uning tizimi va tuzilishi, undagi munosabatlarni tashkil etuvchi omillar – bularning hammasi shaxsning bunyodkorlikka asoslangan faoliyatining natijasidir. Faoliyat, faollik inson shaxsining mohiyatini tashkil etuvchi kuchlarning namoyon bo‘lishi demakdir. Dunyoni o‘zgartirar ekan, faol shaxs ayni paytda o‘z qobiliyatlari, bilim, ko‘nikma va mahoratini uzluksiz ravishda takomillashtiradi. U shu asnoda o‘zligini anglaydi, faol shaxs sifatida jamiyatda o‘zini namoyon qiladi. Bunda insoniy ehtiyojlar doirasi kengayib boradi va shu bilan bir paytda mazkur ehtiyojlarni qondirish vositalarining sifat va son jihatdan o‘sishi yuz beradi.

Ma’lumki, «faollik» tushunchasi ba’zi hollar, xususan shaxs va uning faoliyatini tadqiq etuvchi fan sohalarida faoliyat tushunchasi bilan qorishtirib yuboriladi. Masalan, «Psixologiya»ga oid lug‘atda mazkur tushuncha «tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak atrofdagi muhit bilan o‘zaro ta’sirida namoyon bo‘ladi. Psixik faollik bu o‘zaro ta’sir, shu asosda faoliyat ko‘rsatish bilan xarakterlanadi» - deyiladi. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘atida «Ijtimoiy faollik –

ijtimoiy sub’ektlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniyma’rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo‘yilgan huquq va burchlarini to‘liq amalga oshirishga intilishi», - deya ta’riflangan. «Politologiya»dan ensiklopedik lug‘atda shaxs faolligi siyosiy faollik tarzida talqin etiladi. Ushbu lug‘atda faollik shunday izohlanadi: «SHaxs faolligi ob’ektiv voqelikka bo‘lgan munosabatda aniq namoyon bo‘ladi. Bu munosabat har bir shaxsning jamiyatda o‘z mavqeiga ega bo‘lishi, o‘zining xilma-xil ehtiyojlarini qondirish yo‘lidagi ijtimoiy munosabatlarda qanchalik erkin ishtirok etsa, bu uning siyosiy faolligining o‘sishiga shunchalik ta’sir ko‘rsatadi», □ deyilgan. Faollik – «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da mehnatda yoki biror harakatda, jarayonda jadallik, jonbozlik ko‘rsatish, ishchanlik, ta’sirchanlik deb ta’riflanadi. Bizning tadqiqotimiz nuqtai nazaridan mazkur izoh mohiyatan e’tiborlidir. Faol (lot. «activus» so‘zidan olingan bo‘lib), biror ishga g‘ayrat bilan kirishadigan, astoydil ishlaydigan, ishchan, aktiv deb izohlanadi. Pedagogika ensiklopediyasida esa ijtimoiy faollik – 1. ijtimoiy sub’ektlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniyma’rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo‘yilgan huquq va burchlarini to‘liq amalga oshirishga intilishini ifodalovchi tushuncha. 2. Sub’ektning jamiyat hayotida ongli holda mustaqil ishtirok etishi, ma’lum ijtimoiy-ma’naviy sohada vujudga keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan harakatidir. Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va xulq-atvorini ongli ravishda boshqarishining asosiy sharti hisoblanadi.

Pedagogikada o‘zini-o‘zi nazorat qilish – shaxsning o‘z ijtimoiy hamda ruhiy faoliyatini o‘zi ongli ravishda nazorat qilib turishdan iborat ijobiy sifat, deb qaraladi. Ushbu ta‘rif o‘z-o‘zini tarbiyalash sifatining o‘z xatti-harakatlarini ijtimoiy axloq nuqtayi nazaridan tahlil qilish qobiliyati orqali o‘zida ijobiy xarakterologik xislatlarni tarkib toptirishga va salbiy xususiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan ijobiy faoliyat tushuniladi. O‘z-o‘zini nazorat qilish fazilati o‘z-o‘zini tuta bilish, o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini idora qilish va o‘z-o‘zini kuzatish kabi shaxsiy sifatlar bilan birga uchraydi. Yu.K.Babanskiy o‘z-o‘zini nazorat qilish bu - yo‘l qo‘yilgan xatolar va noaniqliklarni mustaqil ravishda topish hamda aniqlangan bo‘shliqlarni bartaraf etish yo‘llarini belgilash qobiliyati, - deb ta‘riflagan. Y.E.Villems va hammualliflari olib borgan tadqiqotlarida o‘z-o‘zini nazorat qilish biologik asoslarga ega bo‘lsa-da, ushbu fenomen bolalarda, asosan, ijtimoiy muhit tomonidan belgilanishini aniqlaganlar. O‘z-o‘zini nazorat qilish – bu qiyinchilikka duch kelganda yoki vasvasaga uchraganda o‘z impulslarini boshqarish qobiliyati va psixofiziologik komfort bilan o‘zaro mustahkam bog‘liqdir, deb hisoblaydilar. Tadqiqotchilar o‘z-o‘zini nazorat qilish 60 %gacha irsiyat bilan bog‘liq bo‘lsa-da, inson jinsi yoki yoshiga qarab farq qilmasligini isbotlaganlar. Shuning uchun, o'z-o'zini nazorat qilishdagi individual farqlarni tushunish uchun genetik omillarni hisobga olinishi zarur, deb xulosa qilganlar

Ta’kidlash joizki, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy hayotda yoshlarning faolligini rag‘batlantirishga qaratilgan qator aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yuqorida aytib o‘tilganlar O‘zbekistonda yoshlarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi o‘rnini kuchaytirish bo‘yicha yo‘nalish belgilanganini aytish imkonini beradi. SHu bo‘yicha davlat va yoshlar tashkilotlaridan

yoshlar tashabbuslarini to‘liq qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor berilmoqda. Bunga tayanib, O‘zbekistonning rivojlanishidagi yangi bosqichda yoshlar alohida o‘rin tutishini ta’kidlash mumkin.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1.Tojiboyeva X.M. “Gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari” // Monografiya. – Toshkent: “Tafakkur qanoti” nashriyoti, 2021. – 208 bet.

2.Gender mainstreaming of employment policies – A comparative review of 30 European countries. Luxembourg: Office for Official Publications of the European Comm unities, 2008 – p. 44.

3.Safarova R.G. va b. O‘quvchi-yoshlarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari. - Monografiya. – T.: “Tafakkur qanoti” nashriyoti, 2018 yil, 192 bet.

4. Aripov Sh.O. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik tizimi// pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)... dis. – Farg‘ona, 2023. 133 bet.

5.file:///C:/Users/user/Downloads/oquvchilar-ijtimoiy-faolligini-oshirish-ijtimoiy-zaruriyat-sifatida.pdf

6.https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0056/56_i_20241129_124411_1.25.pdf